

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Rustamova Shahnoza Davlataliyevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitni yaratishning ilmiy-nazariy asoslari va uning bolalar rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi. Ilmiy manbalar tahliliga tayangan holda muhitning tuzilishi, pedagogik funksiyalari, faoliyat markazlarining roli va tarbiyachining boshqaruv strategiyalari qisqa, lekin mazmunli tarzda bayon etiladi. Tadqiqot natijalari rivojlantiruvchi muhitning bolalarning kognitiv, ijtimoiy va ijodiy rivojiga samarali ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются научно-теоретические основы создания развивающей среды в дошкольном образовании и её влияние на развитие детей. На основе анализа научных источников кратко, но содержательно описаны структура среды, педагогические функции, роль центров активности и стратегии управления воспитателем. Результаты исследования показывают, что развивающая среда оказывает эффективное воздействие на когнитивное, социальное и творческое развитие детей.*

Abstract: *This article discusses the scientific and theoretical foundations of creating a developing environment in preschool education and its impact on children's development. Based on the analysis of scientific sources, the structure of the environment, pedagogical functions, the role of activity centers and the educator's management strategies are briefly but meaningfully described. The results of the study show that the developing environment has an effective impact on the cognitive, social and creative development of children.*

Kalit so'zlar: *rivojlantiruvchi muhit, maktabgacha ta'lim, pedagogik sharoit, faoliyat markazlari, o'yin faoliyati, ijodiy muhit, kognitiv rivojlanish, mustaqil faoliyat, individual yondashuv*

Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limga bo'lgan e'tibor xozirgi kunda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Maktabgacha ta'lim tizimiga alohida to'xtalib o'tilgan va bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish to'g'risida bir qator tashabbuslar aytib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining qabul qilgan qarori hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi, 2022 yil 4-fevralda qayta Takomillashtirilgan nashrning chop etilishi, Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishida muhitning o'rni beqiyosdir. Rivojlantiruvchi muhit bola shaxsining har tomonlama shakllanishi, bilish jarayonlarining faollashuvi, mustaqil o'yin va ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni samarali tashkil etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Rivojlantiruvchi muhit — bu bolalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi, ularning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirilgan moddiy, ma'naviy, psixologik va pedagogik sharoitlar majmuasidir. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Xavfsizlik, erkinlik, rang-baranglik va funksionallik, yoshga moslik, o'zgaruvchanlik. O'yin — bolaning yetakchi faoliyati bo'lib, rivojlantiruvchi muhitning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni samarali tashkil etish bolalarning intellektual, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va jismoniy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi bolani o'rab turgan muhitning sifatiga, uning pedagogik maqsadga yo'naltirilganligi va bolaning tabiiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar va metodik qo'llanmalarda ta'lim muhiti

sifatining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi alohida ta'kidlanmoqda. Rivojlantiruvchi muhitning samarali tashkil etilishi bir qator tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, muhit bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u bolalarning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda yaratilishi lozim. Muhit faoliyatga yo'naltirilgan, xavfsiz, ijodiy va mustaqil bo'lishi zarur. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil etilgan "Ijodiy markaz"da bolalar turli konstruksiyalar va didaktik o'yinlar bilan mustaqil faoliyat olib boradilar, muammolarni hal qiladi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ijodiy va san'at burchagi orqali bolalar hissiy intellektini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan "San'at studiyasi"da bolalar bo'yoqlar, gil va musiqiy asboblari bilan ishlash orqali ijodiy fikrlashni o'rganadilar, sahnada rollarni ijro etish orqali o'z hissiyotlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhli loyiha va muloqot shakllari ham rivojlantiruvchi muhitning ajralmas qismidir. Masalan, Toshkent viloyatidagi maktabgacha ta'lim muassasasida har haftada bolalar kichik guruhlarda o'yin, hikoya yoki eksperiment loyihalari ustida ishlaydilar. Bu faoliyat bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, mas'uliyatni oshiradi va guruh ichidagi hamkorlikni rag'batlantiradi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni samarali tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Muhit yoshga mos, faoliyatga yo'naltirilgan, xavfsiz va ijodiy bo'lishi kerak. Tarbiyachilar, muassasa rahbarlari va ota-onalar hamkorligida yaratilgan muhit bolalarni o'zini rivojlantirishga, mustaqil va ijodiy faoliyatga rag'batlantiradi. Shu sababli rivojlantiruvchi muhitni doimiy takomillashtirish va yangilash maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim vositasidir.

Xulosa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va estetik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali muhit tarbiyachining faoliyati, bolalarning mustaqil ijodiy va o'yin faoliyati hamda ota-ona va mahalla bilan

hamkorlik orqali shakllanadi. Muhitni tashkil etishda bolaning yoshi, qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olinishi, faoliyat markazlari yaratish, turli didaktik va ko'rgazmali vositalardan foydalanish, shuningdek, doimiy monitoring va yangilanish ta'minlanishi muhimdir. Shu bilan birga, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va professional rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, muhitni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish bolalarning rivojlanish jarayonini samarali qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va bolalar faoliyatining turli yo'nalishlarda rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qaror
- 3.Mahmutazimova Yu. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari O'quv qo'llanma.
- 4."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent: MTT vazirligi, 2021.
- 5.Karimova R. "Maktabgacha ta'limda innovatsion metodlar". – Toshkent, 2022.
- 6.Zunnunova G. "Tarbiyachining ijodiy faoliyatini rivojlantirish yo'llari". – "Pedagogika" jurnali, 2023.